

**FARZANDLAR – KELAJAK POYDEVORI****N.Sh.Gaziyeva**

Angren Universiteti “Pedagogika va psixologiya”  
kafedra o‘qituvchisi

**D.T.Ortiqboyeva**

MT yo‘nalishi talabasi

**ANNOTATSIYA**

*Maqolada bugungi kunda mamlakatimizda balki butun dunyoda onalarning jismoniy aqliy va ruhiy sog‘lom farzand dunyoga keltirish va shu ruknda tarbiyalashning sinalgan usullari va tarbiyadagi muammolar haqida so‘z boradi. Farzand tarbiyasida jamiyat, mahalla va ota onaning o‘rni, ahamiyati - farzandning shaxsiy ijtimoiy moslashuviga ta’sirni o‘rganib chiqamiz. Yangi O‘zbekiston ravnaqining poydevori bo‘lib xizmat qiladigan farzandlar tarbiyasini to‘g‘ri shakllantirish yangi o‘quv qo‘llanmalar chop etish va yurtimizning barcha xududlarida axborot vositalarida tanishtirib borish haqida chora tadbirlar taklif etilmoqda.*

**Kalit so‘zlar:** *Bola, rivojlanish, ijtimoiylashuv, yosh davrlari, tarbiya, xis qilish, shakllantirish.*

**АННОТАЦИЯ**

*В статье рассказывается об апробированных методах рождения физически, психически и психически здоровых детей у матерей в нашей стране на сегодняшний день и проблемах в воспитании. Изучим значение общества, общества и родителей в воспитании ребенка - влияние на личностную социальную адаптацию ребенка. Предлагается издать новые учебники и внедрить их в СМИ во всех регионах страны, правильно формировать*

*воспитание детей, которое послужит фундаментом развития нового Узбекистана.*

*Ключевые слова: ребенок, развитие, социализация, юношеские периоды, воспитание, чувство, формирование.*

### **ANNOTATION**

*The article talks about the tested methods of mothers giving birth to physically, mentally and mentally healthy children in our country today, and the problems in upbringing. We will study the importance of society, neighborhood and parents in raising a child - the impact on the child's personal social adjustment. It is proposed to publish new textbooks and introduce them in the media in all regions of the country, to properly shape the upbringing of children, which will serve as the foundation of the development of the new Uzbekistan.*

*Key words: Child, development, socialization, youth periods, education, feeling, formation.*

Har bir ota ona o'z farzandining baxtu saodatli ma'naviy sog'lom istiqboli porloq kelajakdagi mustaqil hayotida ham moddiy jihatdan sog'lom bo'lib yashamog'ini orzu qiladi va shu maqsadga erishish uchun butun umrini bor yo'g'ini sarf qiladi. Ayniqsa bu bizning bolasevar xalqimizning qalbiga singib ketgan fazilatdir. Islom dini ta'limotiga ko'ra farzand Alloh tomonidan berilgan ulug' ne'mat bo'libgina qolmay, u ota onaga topshirilgan ma'suliyatli juda kata omonat hamdir. Bolani aqlan ham jismonan sog'lom parvarish qilish, unga odob ahloq va ta'lim tarbiyani o'rgatib borish xar bir ota onaning kundalik vazifalari sirasiga kiradi. Oiladagi sog'lom muhit va to'g'ri tarbiya farzandning keyingi oladigan bilim va kasb hunarlari uchun poydevor vazifasini o'taydi. Bola tarbiyani dastlab oilasida oladi. Kattalarning butun xatti harakatini xuddi rasmga olgandek ongiga, ulg'aygach ularni xayotga tatbiq etadi. Odob - axloqi yomon bolalar asosan muhiti sog'lom bo'lmagan oilalardan chiqadi. «Bugungi - o'g'ri, firibgar va xulqi yomon kimsalar kecha tarbiyasiga e'tibor berilmagan bolalardir», - degan edi Abdulla Avloniy. Yana bir

xadisda esa «Ilm Xitoyda bo'lsa ham uni izlab topib egallangiz, zero ilmni talab qilish har bir musulmonga farzdir» deyilgan. Menimcha faqat ota onasini yo'qotgan emas, balki qarovsiz qolgan, tarbiyasiga birov ahamiyat bermagan bola ham yetim xisoblanadi. Kelajagimiz poydevori bo'lgan bolalarni tarbiyasiga katta ahamiyat berishimiz ularning yuksak axloqiy qadriyatlar milliy va diniy an'analarimizga sodiq bo'lishiga e'tibor qaratish lozim. Payg'ambarimiz (s.a.v) ning «Ota o'z farzandiga chiroyli tarbiyadan yaxshiroq meros qoldirolmaydi» degan ibratli xadislari ham bejizga emas. Yana bir hadisda esa «Bolalaringiz kattarganda sizlarni hurmat qilishini xohlasangiz, ularni kichikligida siz hurmat qiling» deyilgan. Bolalarni o'z holiga tashlab qo'ysa, kim bilan do'stlashyapti, nimalarga qiziqishi borligiga e'tibor qaratilmasa buning oqibatida yoshlikdan chekish va giyohvandlikka ruju qo'yayotgan, maktabdagi kollejlardagi darslarni sababsiz qoldirib beparvo yuradigan bolalarga to'g'ri yo'l ko'rsatib ularga ilmning ahamiyati va yoshlik qadrini tushuntirib borish zarur. Hozirgi kundagi ma'lumotlarga qaraganda O'zbekiston Respublikasida aholining 64% foizini yoshlar tashkil qilar ekan. Ularning ulg'ayib komil inson bo'lishi uchun davlatimiz barcha moddiy va ma'naviy shart sharoitlarni muhayyo qilmoqda, ulardan sport inshootlari, dam olish va istirohat maskanlarini barpo etib yoshlar ixtiyoriga berib qo'yilmoqda. Farzandlar fe'l arvoridagi salbiy yoki ijobiy sifatlari – tug'ilgandan olingan tarbiya natijasidir. Otalar farzandlari bilan ko'proq suhbatlashishi va ularning qiziqishlarini to'g'ri qabul qilishi juda muhim, an'anaviy odatlarimizga ko'ra otalar oila boshlig'i, shu bilan birga farzand tarbiyasida ham faol ishtirok etishi lozim. Agar farzand otasi ishdan kelganda faqat terghashini eshitsa, farzand nigohida ota shoshilinch vaziyatlarda yordamga keladigan shifokorga aylanib qoladi. 2-3 yoshda bolada shahsiy g'urur shakllana boshlaydi. Bola tug'ilishi bilan bir yoshgacha bo'lgan davrda unda «Men» tuyg'usi rivojlanishdan oldin uni tartib va tarbiyaga chaqirish o'rgatish zarur. Odatiy misol: bola tug'ilishidan boshlab uning vaqtini to'g'ri taqsimlab tartib bilan ovqatlantirilsa, bola ortiqcha vaznga ega bo'lmaydi va to'shakda yotgan joyida peshob qilmaydi. O'z-o'zidan ovqatlanishga o'rgatilsa kelajakda qabziyatdan qiynalmaydi. Bolada asabiylashish va xasad xarakterining asosiy sababi ojizlikdan.

Tokio universiteti professori bolalar psixologiyasi bo'yicha mutaxassis Toshio Yamashita - bolaning asabiylashish sabablarini quyidagicha sanab keltiradi:

- kasallik sababli sog'lig'i yomonlashganda;
- ochlik yoki xorg'inlik sabab o'zini yaxshi his qilmaganda;
- noxush voqea yoki qo'rqinchdan qattiq ta'sirlanganda;
- jismoniy mashqlar yetishmasligidan kuch sarflanmay to'planib qolganda;
- o'z aytganida turib olganda;
- ota - onaga taqlid qilganda;

Bu ro'yxatdan ko'rinib turibdiki bolaning asabiylashish omillari uning atrofidan va tarbiyasidan izlamoq kerak. O'z farzandingizni boshqalar oldida masxara qilmang. Bolani urshgandan ko'ra maqtash afzalroq va samaraliroq. Erta ta'limning antiqa dalillaridan sanalgan ko'p odamni yig'a oladigan kuch, yani "yetakchilik" – bu bolani rivojlantiradi. Har bir guruhda yetakchilik rolini bola o'ynaydigan bo'ladi. Doktor Yamashita o'zining bolalar psixologiyasi nomli kitobida «Yetakchilik qobiliyatiga ega bola uning atrofida boshqa ko'pgina bolalar bo'lsada, doimo o'z fikrlari qilayotgan ishlarini aniq maqsadga yo'naltirganini, o'yin yoki mashg'ulotlarida u doimo biror yangi narsa ixtiro qilishga harakat qiladi» deya tariflagan. She'r yodlash bola xotirasini mustahkamlaydi. Statistika ma'lumotlarida keltirishicha bola bir yilda 170 ta she'r yodlay olar ekan. Bola xotirasida 100 tadan 200 tagacha she'rni saqlab qolar ekan. Takrorlash ilm olish garovi deganlaridek agar bola she'rni bir qatorini unutsa, she'rni boshidan oxirigacha qaytarsin shunda butun she'r yoki hikoyani yodida saqlashi oson bo'ladi va aqliy qobiliyat, ijodiy imkoniyatlari rivojlanadi. Shuning uchun farzandlardagi ilk bolalik xotiralari ularning butun hayoti va kelajagi uchun juda katta ta'sir qiladi. Ota onalar farzandlar yonida tortishuvi oiladagi adolatsizlik va ichkilikbozlik moddiy tomondan yetishmasligi bolalik davridagi yomon xotiralar agressiv va salbiy xarakterlarni juda kuchli rivojlantiradi va bunday farzandlar kelajakda albatta jamiyatda o'z o'rnini topishga va qalbidagi jarohatlarni unutishga qiynaladilar.

Ko'plab Yevropa va Osiyo davlatlari psixologlari ilmiy nazariyasi va taqdiqotlarini o'rganadigan bo'lsak yer yuzidagi tug'iladigan farzandlar 4 ta toifaga bo'linar ekan

1. Indigo farzandlar
2. Kristal farzandlar
3. Kamalak farzandlar
4. Quyoshli nurli farzandlar

Bundan ko'rinib turibdiki yer yuzida tug'ilayotgan farzandlar aslo bir birlariga o'xshamas va bir birlarini takrorlamas ekan. Endi bunday 4 qatlamli farzandlar haqida to'xtalsak. Indigo farzandlar asosan ikkinchi jahon urushi tugab, yer sayorasi obdon yangilanib yangi bosqichga o'tganida (1950-1960 yillardan) tug'ila boshlagan. Yani to'lqin-to'lqin, ozgina dam olib 2000 yilga qadar Indigo farzandlar tug'ila boshladi. Bunday farzandlar asosiy vazifasi yerimizni urushdan keyingi holatini qayta taraqqiyotga tayorlab, ko'plab yangiliklar yaratishdan iborat edi. Shuning uchun ham e'tibor bersangiz o'sha yillarda tug'ilgan ota bobolarimiz mehnatkash, sabr-toqatli, tinchlik zamonlarni juda qattiq qadrllovchi, insoniylik hislatlari yuqori shukronalik hislariga juda to'yingan va o'qish, oliy ma'lumotli bo'lish, yangilik yaratishni yaxshi ko'radigan fe'l-atvorda bo'lganlar. Bunday farzandlarning aurasi dumaloq baqlajon rangda noyob bo'lib unday farzandlar ko'proq onalariga suyanishgan va bo'ysunuvchanlik xarakteri yuqori bo'lgan. Kristal farzandlar asosan Indigo onalardan tug'iladi va unday farzandlar 2001 yildan boshlab yer sayyoramiz yana bir qadam rivojlanib yuqorilaganda tug'ilishni boshlagan. Kristal farzandlar aurasi oq olmos rangida tuxumsimon shaklda bo'lib ular asosan fan-texnika tarraqiy etgan davrda tug'ilganligi sababli fe'l-atvorlari tubdan farq qiladi. Ularning majburiy mehnatga ortiqcha talabchanlikka va qat'iy talab va tartiblarni yoqtirmasligi, arzimagan sabablar va hodisalardan tez ranjib qoladilar. Ammo ular shu bilan birgalikda tabiatni yashillikni yaxshi ko'ruvchi hayvonot dunyosini ham yaxshi ko'ruvchi ko'ngli toza, mehribon, mehr-muhabbat, do'stlik rishtalari kuchli rivojlangan bo'lib, ularning tug'ilgan muhiti va sharoiti shunga bog'liq. Kamalak farzandlar 2012 yildan yer yuzida juda katta ko'tarilish, globallashgan dunyoga o'tish

davridan tug'ila boshlagan va ular nomidan ko'rinib turganidek serjilo nozik, turli ranglarda. Bunday farzandlar endi rivoj topayotganligi sababli hali ilmiy izlanishlar o'z nihoyasiga yetganicha yo'q. Shuning uchun ham barcha fanlar va sohalarda kuzatilayotgan yangi inovatsiyalar, metodlar ta'lim-tarbiya usullari ham doim sharoit va muhit talabga qarab o'zgarib turadi.

Birinchi inson o'zini shaxsiy rivojlantirishi mumkin bo'lgan kitobga hech qachon pulni tejamasligi kerak. Ikkinchisi bu hammamizning qaramligimizga aylanib ulgurgan smartfonimiz. Uning yordamida biz bir daqiqada butun dunyodan xabardor bo'lamiz. Uning yordamida biz bir zumda o'zimizga kerakli ma'lumotni topa olamiz, lekin doim ham foydali emas. Holbuki barcha ota onalarning internetga kirishga imkoniyati bor ekan nega ularga bola tarbiyasiga oid foydali ma'lumotlarni yetkazuvchi bir mobil dasturni yaratgan holda ularga bunda yo'l boshchi bo'la olmayabmiz. Aytishingiz mumkin yosh avlodga maktab, kollej, universitet darsliklari orqali kerakli barcha bilimlar berilyabdi deya. Lekin inson ongi shunday tashkil topganki unga bu bilimlar amaliyotda kerak bo'lgandagina u o'sha ma'lumotlarni to'la yuklama bilan qabul qila oladi. Endigina ona bo'lgan ayol farzandini qanday parvarish qilish uni qanday tarbiyalash haqida shunchalar ko'p qayg'uradiki, unga berilgan har qanday maslahat har qanday ma'lumotni gubkadek shimib oladi biz o'sha fursatdan to'g'ri foydalanib unga shu davr mobaynida farzandiga qanday muomalada bo'lishi, qanday qilsa u yetuk farzandni tarbiyalay olishini tushuntiradigan bir qo'llanma yoki dasturni yaratishimiz darkor. Chunki kelajak quruvchilarini biz onalar tarbiyalamoqdamiz eng asosiy e'tiborni onalar tarbiyasiga qaratsak yanglishmagan bo'lamiz deb hisoblayman.

Bizdagi asosiy kamchiliklardan biri deb juda ko'p hollarda ota-onaning kelisholmasligi tortishuvlari va bu vaqt ichida farzandlar ko'z oldida sodir bo'ladigan oilaviy janjallar, ba'zi hollarda esa farzandlarning ushbu janjallarga aralashishi deb hisoblayman. Ba'zida esa onaning yoki otaning farzandini do'st pozitsiyasiga qo'yib u bilan dardlashishi. Bu farzandning ruhiyatini sindiradi sababi bola ota yoki onasining muammosini eshitganidan so'ng unga yordam bergisi keladi va tabiiyki uning qo'lidan hech narsa kelmagach u o'zidan qoniqmaslik hissiga duchor bo'ladi.

Katta bo'lgach u o'zini noshud deb hisoblashni boshlaydi boshqalar uning ustidan hukmronligini osongina o'tkaza oladi, va uning shaxsiy fikri tobora yo'qolib boradi. Bunday holatlar bo'lmasligi uchun ota ona avvalo o'zini yaxshi tanib olishi o'zining hissiyotlarni boshqarishni bilishi kerak. Ota-ona uchun mayda tashvishdek ko'ringan narsa bolaning butun kelajakdagi hayotini hal qilib yuborishi mumkinligini ular anglab yetishlari kerak. Albatta bu muammoning faqatgina bir qismi va bunday holatlar juda ko'p ota-onalar muammoning potensialini his qilishi uchun o'zlari psixologik tarafdin oz bo'lsada savodxonligi bo'lishi kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Robert Kiyosaki. «Uchdan keyin kech»
2. Z.Nishonova, G.Alimova “Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi” T.-2016
3. S.Jalilova “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi” T.-2013
4. Isabekova D.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarini kasblar bilan tanishtirish. Science and innovation. 2022 yil.